



**3-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANIDAGI "JAMOAT TRANSPORTI"
MAVZUSINI O'TISHDA ZAMONAVIY O'QUV-DIDAKTIK VOSITALAR ORQALI
DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Urazova Guli Uringaliyevna

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoat transporti tushunchasini shakllantirish, jamoat transportidan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini didaktik o'yinlar orqali oshirish va jamoat transportlarida yurish, muomala qilish odobi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jamoat transporti, ko'nikma, True, False, metod, o'yin

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ
УЧЕБНО-ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ПРИ ПРОХОЖДЕНИИ ТЕМЫ
'ОБЩЕСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТ' ПО ПРЕДМЕТУ РОДНОЙ ЯЗЫК И
ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ З КЛАСС**

Аннотация. В данной статье речь пойдет о формировании понятия общественного транспорта у младших школьников, совершенствовании навыков правильного пользования общественным транспортом с помощью дидактических игр и этики передвижения, обращения с общественным транспортом.

Ключевые слова: общественный транспорт, навык, правда, ложь, метод, игра

**IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON THROUGH MODERN
EDUCATIONAL AND DIDACTIC MEANS WHEN PASSING THE TOPIC' PUBLIC
TRANSPORT " IN THE SUBJECT OF THE 3RD GRADE MOTHER TONGUE AND
READING LITERACY**

Abstract. This article deals with the formation of the concept of public transport in elementary school students, improving the skills of proper use of public transport through didactic games, and the manners of walking and dealing in public transport.

Key words: public transport, skill, True, False, method, game

Kirish

Butun dunyo bo'ylab millonlab insonlar jamoat transportlaridan har kuni foydalanishadi. Jamoat transportlariga avtobus, metro, tramvay, samolyot, poyezd, trolleybuslar kiradi va ular bilan bog'liq halokatlar ko'p sodir bo'ladi. Qurbonlarning ko'pchiligi yosh bolalardir. Bunday halokatlarning sodir bo'lish sababi voyaga



yetmagan yoshlarda jamoat transportidan tog'ri foydalanish qoidalarini bilmasligidadir.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Oldingi yillarda boshlang'ich sinf lar darsliklarida jamoat transporti haqida tushuncha bo'lмаган. Davlatimiz Rahbarining farmoniga muvofiq mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziylolarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yana-da oshirish, ta'lim oluvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta'lim tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish imkonni bermoqda. Bu borada ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'lim texnologiyalarini yana-da rivojlantirishni ko'zda tutuvchi Milliy o'quv dasturi asosida 2020-2021- yildan boshlab umumta'lim maktablarida Ona tili va O'qish fanlarining birlashuvi natijasida "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani joriy etildi. Yangi darsliklarga bir qator o'zgartirishlar ham kiritilgan. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki hozir zamon talabi bo'lgan hayotiy ko'nikmalarini ham o'zlashtirib boradilar.

Tadqiqot natijalari

„Jamoat transporti” mavzusi uchun 3-sinfda 6 soat, mustahkamlash uchun 1 soat berilgan. quyidagi mavzular mavjud: Uch hikmat hikoyasi, Metroda she'ri, mustahkamlash darslari. Bu mavzuning darslikka kiritilganining sababi o'quvchilarga jamoat transporti, ularning ahamiyati haqida tushuncha berish, jamoat joylarida o'zini tutish va muomila qilish ko'nikmalarini shakllantirish, transport va unga oid til birliklarini shakllantirishdan iborat.¹

Muhokama

Ko'plab yoshlar jamoat transportlarida baland ovozda gapirishni, mobil telefonini yoki playerini to'liq ovozda yoqishini yaxshi ko'rishadi. Bu albatta madaniyatsizlikning bir ko'rinishidir. Chunki shovqin orqali boshqa yo'lovchilar bezovta bo'lishi, haydovchiga halaqit berishi mumkin. Bunday holatlarni oldini olish maqsadida darsliklarga mavzu sifatida kiritilib, tushuntirish ishlari olib boriladi. Ushbu mavzuni o'quvchilarga didaktik o'yinlar va metodlar orqali tushuntirish yaxshi samara beradi. Quyida bu metod namunalarini ko'rib chiqamiz.

Metod 1. True and False-ushbu metod orqali o'quvchilar jamoat transportlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Metodni qo'llash ketma-ketligi:


13. Metodni kichik guruhlarga bo'lib o'tkaziladi;
14. Kartochkalarga yozilgan ma'lumotlar guruhlarga tarqatiladi;
15. Jamoa tarzida ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g' ilarga ajratishadilar;

16. Birgalikda muhokama qilinadi;
17. Mavzu yuzsidan xulosaga kelinadi.

TRUE	FALSE
Jamoat transportlarida kattalarga, nogironlarga joy berish	Avtobuslarga yugurib minish
Yo'l qoidalariga amal qilish	Telefonda baland ovozda gapirish
Transportning eshiklarini oldida turmaslik	Jamoat transportlarida ovqat yeb ketish
Kirish paytida sumkalar va ryukzaklarni yelkadan olish	Chiqindi tashlash
Haydovchiga halaqt bermaslik	Begonalarning narsalarini so'rovsiz olish

Metod 2. Qismlarga to'g'ri joylashtir metodi- ushbu metod o'quvchilarni yanada bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Metodni amalga oshirih uchun quyidagi jihozlar kerak bo'ladi: qismlari to'liq bo'limgan avtobus rasmi va shu o'ringa mos keluvchi bo'laklarga savol yozilgan qog'oz , yelim. Ushbu metodda o'quvchilar savollarga to'g'ri javob bera olsagina to'ldiruvchi qismlarga ega bo'ladilar. Kichik guruhlarga bo'lib, musobaqa tarzida o'tkazilsa yanada qiziqarli bo'ladi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Jamoat transporti vositalariga nimalar kiradi?
2. Nega "Jamoat transporti" deb ataladi?
3. Nima uchun velosiped jamoat transporti emas?
4. Jamoat transportlariga yegulik yeyish mumkinmi?



Metod 3. Mosini top metodi- bu metodimizda jamoat transport vositalari nomlari va ularga xos ta'rif chalkash holda beriladi. O'quvchilar to'g'ri ma'lumotlarni topib birlashtirishlari zarur. Bu didaktik o'yinimizni har bir o'quvchi yakka taribda bajarsa yaxshi samara beradi. Quyidagicha ko'rinishda beriladi:

Nº	Transport vositasi	javoblari		Ta'rif
1	avtobus	1-b	a	Yer ostida elektr temir yo'li orqali harakatlanadi.

				g yer ustida harakatlanuvchi ham turi ham bor.
2	poyezd	2-c	b	Yo'lovchi tashishga mo'jallangan, katta yo'lda harakatlanadi.
3	tramvay	3-d	c	Bir-biriga ketma-ket ulangan avtomobil. Temir a harakatlanadi.
4	metro	4-a	d	Elektr kuchi bilan ishlaydigan, yo'lovchi tashuvchi yo'l transporti.

Metod 4. To'rtinchisi ortiqcha metodi. Rasmlarda berilgan narsaladan bittasi ortiqcha bo'ladi. Quyidagi rasmda velosiped ortiqcha, chunki velosiped jamoat transporti hisoblanmaydi.



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jamoat transport vositalaridan foydalanish mavzusini o'quvchilarga yanada yaxshiroq tushuntirish maqsadida didaktik o'yinlar otkazish yaxshi natija beradi. Milliy o'quv dasturiga kiritilgan o'zgarishlar o'quvchilarning zamon talabiga mos ravishda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

REFERENCES:

- 4) Ona tili va o'qish savodxonligi: 3-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma/ K. Mavlonava, [va boshq.].-Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.-16 b.